



NAVOIY FARDLARINING VAZN XUSUSIYATLARI

Shohista Mulloqulova

ToshDO`TAU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7427436>

ARTICLE INFO

Received: 30th November 2022

Accepted: 10th December 2022

Online: 12nd December 2022

KEY WORDS

Janr, fard, vazn, bahr, vasi, mujtas.

ABSTRACT

Maqolada kichik lirik janr bo`lmish fardlarning o`rganilishi hamda Alisher Navoiy qalamiga mansub fardlarning vazn xususiyatlari tahlil qilingan.

Arab, fors-tojik, turkiy xalqlar, jumladan, o`zbek adabiyotida keng tarqalgan kichik lirik janrlardan biri fardlardir. "Fard(ar.)-yakka, yolg`iz, yagona. Bir baytdangina iborat eng kichik mustaqil she`r shakli, a-a yoki a-b tarzida qo`fiyalanadi."¹ Fard bir baytdan tashkil topgan bo`lsa-da, unda shoirning axloqiy-ta`limiy fikrlari, falsafiy qarashlari qalamga olinib, ixcham poetik xulosa ifodalanadi.

"Turkiy adabiyotshunoslikda fard haqidagi ilk nazariy qarashlar "Funun ul-balag`a" asarida keltirilgan bo`lib, muallif fardning ikki misradan iborat mustaqil she`r ekanligini ta`kidlagani holda uning faqat a-b tarzda qo`fiyalanishini aytib o`tadi."²

Turkiy adabiyotda fardning ilk namunasi Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asarida uchraydi:

Niyozim bu turur sendin, nigoro,
Unutma bandani bahri xudoro.

¹ D.Yusupova Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O`quv qo`llanma. – Toshkent: 2018. – B.157.

² D.Yusupova Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O`quv qo`llanma. – Toshkent: 2018. – B.157.

Fard janrining rivojlanishida Alisher Navoiy ijodining alohida o`rni bor. Fardlarning barchasi "Favoyid ul-kibar" devoni tarkibida 86 ta fard mavjud bo`lib, 82 tasi qo`fiyali, 4 tasi esa qo`fiyasiz bo`lib, muayyan ma`noda "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotini yakunlovchi xulosaviy janr vazifasini o`tagan. Fardlar shoirlarning axloqiy-tarbiyaviy fikrlarini o`zida mujassam etgani uchun ham hikmatli so`zlarga yaqin turadi. Navoiy fardlarda o`z fikr-mulohazasi, ko`rgan-kechirganidan chiqargan xulosasining mag`zini aytib qo`ya qoladi. Shu sabab ham shoir ijodidagi aksar fardlar xalq maqoli yoki hikmatli so`z kabi jaranglaydi, kuchli ta`sirchanlikka ega bo`ladi. Navoiyning quyidagi:

Yuqar yamonlig` angakim, kirar yamon el
aro,

Ko`mur aro ilik urg`an qilur ilkini qaro.³

fardi 8-sinf "Adabiyot" darsligida kiritilgan bo`lib, baytda yomon kishilar davrasiga qo`shilmaslik kerakligi g`oyasi ilgari surilgan. Misralarning vazn xususiyatlariga to`xtaladigan bo`lsak,

³ Qarang: 8-sinf "Adabiyot" darsligidagi keltirilgan matnda "Ko`mur aro ilik urg`an qilur ilkini qaro" tarzida berilgan. Lekin biz vazn talabidan kelib chiqib "Ko`mur aro ilik urg`an qilur ilkini qaro" singari qo`lladik.



aruzning *mujtassi musammani maxbuni mahzuf* vaznida yozilgan. Darslikda janr vazni bilan bog'liq ma'lumot berilmagan.

Bayt vaznini bilish,uni ifodali o`qish muhim sanaladi.

u	ar	a	on	i	`+a	ga	im	i	ar	a	on		+a	o
o`	ur		o		i	+ur	`an	i	ur		ik	i	a	o

Fardni yuqoridagi kabi bo`ginlarga ajratish, o`quvchilarga bayt vaznini aniqlashda yengillik yaratadi. Bir qarashda vaznni aniqlash o`quvchiga mushkul ko`rinadi. Sababi baytimiz aruzning *mujtass* vaznida yozilgan. O`qituvchi shu o`rinda o`quvchilarga bu vazn haqida ma'lumot berib o`tadi. "Shunday bahrlar borki, ular biz o`rganib chiqqan bahrlardan biroz farq qiladi, ya'ni ularning tarkibida ikkita asliy rukn ishtirok etadi. Masalan, "mustaf'ilun" va "maf'uvlotu" degan ikki asliy rukn birgalikda bir misrada keladi va yangi bahr hosil bo`ladi. Demak, bir bahr tarkibida ikki asliy rukn kelyapti. Biz tanishgan *ramal* yoki *hazaj* bahrlari faqatgina bir asliy rukn hamda shu rukn asosida hosil bo`lgan tarmoq ruknlaridan shakllanar edi. Endi esa turli asliy ruknlar takroridan tashkil topgan bahrlarni bilib olamiz. Turkiy adabiyot, xususan, Navoiy she'riyatida foydalanilgan bunday bahrlar quyidagilardir: *sari',xafif, mujtass, muzori', munsarih.*"⁴ Yuqoridagi baytda *mujtass* vazni qo`llanganini aytib o`tdik, endi ko`rib chiqsak.

"Mujtass" so`zi arabcha bo`lib, "ildizi bilan yulib olingan" degan ma'noni bildiradi. Mazkur bahr "mustaf'ilun" hamda "foilotun" asllarining almashinib kelishidan hosil bo`ladi va turkiy she'riyatda faqat musamman ko`rinishida uchraydi:"

Mustaf'ilun foilotun mustaf'ilun foilotun

--V-/-V--/--V-/-V--⁵

Baytdagi -yu,-ya,-lig`,-a,-ki,-ya,-el,-a,-ko`,`-a,-i,-lik,-qi,-lik,-ni,-qa bo`g`inlarimiz qisqa hijo tarzida;-qar,-mon,-nga,-kim,-rar,-mon,-ro,-mur,-ro,-ur,-g`an,-lur,-ro bo`g`inlarimiz cho`ziq hijo shaklida bo`lib kelgan. Misralarda "vasl" hodisasi ham o`ziga xos ohangga sabab bo`lgan. "Ma'lumki, vasl hodisasi bu vazn talabi bilan ayrim yopiq hijolar oxiridagi undosh tovushni undan keyin turgan va unli tovush bilan boshlangan hijoga qo`shib yuborish bo`lib, natijada o`ta cho`ziq hijo cho`ziq hijoga, cho`ziq hijo esa qisqa hijoga aylanadi."⁶

Keltirilgan baytda *yamonlig`* so`zidagi *g`* undoshi, *ilik* so`zidagi *k* undoshi vazn talabi bilan o`zidan keyin kelayotgan *anga,urg`an* so`zlaridagi *-a, -ur* hijosi bilan birikib, *vasl* hosil qiladi va "*g`a*", "*kur*" tarzida o`qiladi. Ohangda o`ynoqilik va yengillik hosil bo`ladi. Demak, fardning vazni *mujtass* bahrini hosil qiluvchi *mafoilun, failotun* va *failun* tarmoq ruknlaridan tashkil topgan ekan. Keyingi fardning vaznini ko`rib otsak:

Men si-nuq ko`ng/ -lum si-nuq sab/-rim u-
yi xud/ yer-ga past
- V --/ - V --/ - V --/ - V ~
Bil-ma-gay ho/-lim shi-kas-tin/ ko`r-ma-
gan mun/ -cha shi-kast
- V --/ - V --/ - V --/ - V ~

⁴ D.Yusupova Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O`quv qo`llanma. – Toshkent: 2018. – B.103.

⁵ D.Yusupova Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O`quv qo`llanma. – Toshkent: 2018. – B.112.

⁶ Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати.– Т.:Шарқ,1988.-Б.44.



Hijolarning joylashuvi, son va sifati foilotun ruknini, uning takrorlanishi ramal bahrini, baytdagi sakkizta rukn musamman ekanini, oxirgi ruknlarda o'ta cho'ziq hijoning kelishi maqsur tarmog'ini ko'rsatadi va fardning *ramali musammani maqsur* vaznida yozilganligi oydinlashadi. Baytda har qanday kishi boshidan kechirishi mumkin bo'lgan holat va kayfiyat tasvirlangan. Shoir erishgan ijodiy muvaffaqiyatlar esa u bunday qiyinchiliklarni sabr-matonat bilan yengib o'tganini ham xayolidan o'tkazadi. Demak, fardda shoirning hasbi holi ifodalangan desak adashmaymiz. *Past* va *shikast* so'zlarimiz tarkibidagi oxirgi hijolar o'ta cho'ziq hijo deya aytdik. O'ta cho'ziq hijo – bir yarim bo'g'inga teng keladi. Bu haqda D.Yusupova shunday deydi: "Tarkibida cho'ziq unlisi bo'lgan yopiq bo'g'in ham o'ta cho'ziq hijodir. Bu bo'g'inning oddiy yopiq bo'g'indan farqi shundaki, uning tarkibida nisbatan cho'ziqroq talaffuz qilinuvchi unlilar (aksariyat holatlarda "o", "e", "u" tovushlari) qatnashadi. O'ta cho'ziq hijo matnda "- V" belgisi bilan ifodalanadi. Misra oxirida esa "~" belgisi qo'llaniladi"⁷

Ulki, sanga eldin erur aybgo`,

Elga dog'i sendin o'lur aybjo`.

Ushbu fardning mohiyatida ham muhim bir pand yotibdi. Undagi "dog'i" so'zi "tag'in", "yana", "ham", "aybg'o" kalimasi "ayb aytuvchi", "aybjo" esa "ayb topuvchi" ma'nosini anglatishini bilsak, misralardagi asossiy mazmunni to'la tushunib olgan bo'lamiz. Ya'ni "Kimki senga odamlarning aybini aytsa, u sendan ayb topib, boshqalarga ham yetkazadi" degan fikrlarni aytadi shoir. Asarning vazni yuzaga keltirgan yengil va o'ynoqi ohang, ikki misrani bir-biriga chambarchas bog'lab turgan qofiya ham baytda badiiy go'zallikni hosil qilgan. Shoirning yuksak mahorati-yu, qalami kuchi sezilib turibdi. Baytning vazn xususiyatlarini ham ko'rib o'tsak.

Ul-ki sa-nga el-din e-rur ayb-go`

⁷ D.Yusupova Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2018. – B.12.

- V - - / - V - - / - V -

El-ga do-g'i sen-din e-rur ayb-jo`

- V - - / - V - - / - V -

Keltirilgan fard *ramali musaddasi mahzuf* (taqti'i : foilotun, foilotun, foilun) vaznida yozilgan. Baytda *eldin* so'zidagi "n" undoshi, sendin so'zidagi "n" undoshi vazn talabi bilan o'zidan keyin kelayotgan *erur* so'zlaridagi "-e" hijosi bilan birikib, vasl hosil qiladi va *ne* tarzida o'qiladi. Shuningdek, *aybgo`* va *aybjo`* so'zlarimizda imola hodisasi uchraydi. "Imola aruz atamalaridan bo'lib, vazn taqozosi bilan tarkibida cho'ziq unli bo'lgan ayrim yopiq hijolarni, unlini cho'zib talaffuz qilish hisobiga, o'ta cho'ziq hijo qilib o'qishni ifodalaydi. Taqti' chog'ida, shuningdek, she'r chizmasida ikki hijo, ya'ni bir cho'ziq va bir qisqa hijo hisobiga o'tadi."⁸

Belu og'zidin, -dedilarkim, -degil afsonae

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Boshladim filholkim:, "Bir bor edi, bir yo`q edi..."

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Fardlar xuddi g'azalning matlasi kabi, a-a tarzida juft qofiyaga ega bo'lishi ham, shuningdek g'azalning qolgan baytlari kabi ikki misra o'zaro qofiyalanmagan holda kelishi ham mumkin. Ushbu fardda misralar o'zaro qofiyalanmaganiga guvoh bo'lamiz. Vazniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilganligini bilib olamiz. *Filholkim* so'zi tarkibida kelgan *hol* o'ta cho'ziq hijo sanaladi va taqti'da bir cho'ziq va bir qisqa hijo hoida olinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Navoiy fardlari shoirning hayotiy tajribalari mahsuli bo'lmish chuqur mushohadalari va mantiqiy xulosalarini o'zida aks ettirgan yuksak she'r namunasidir. Shu bois ham maktab darsliklarimizda Navoiy fardlaridan bo'lak hech bir fard kiritilmagan.

⁸ Ҳоҷијаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1988. – Б. 57.



References:

1. Sultonmurod Olim va boshq. "Adabiyot" 8-sinf uchun darslik.1-qism. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
2. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати.–Т.:Шарқ,1988.-224б.
3. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти,1976.
4. Навоий асарлари луғати. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти,1972.
5. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O`quv qo`llanma. – Toshkent: 2019.
6. Rahmonova Sh. Alisher Navoiy g'azallarini ifodali o'qitish tajribasidan/"Akademik Azizxon Qayumovning ilmiy-ijodiy merosi" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T.: 2020. – 63-67.